

2022 yil 22-aprel

Farg'ona shahri

Ikki tomonlama xo'jalik munosabatlarini ifodalovchi mazkur shartnoma O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi xamda o'z Nizomiga asosan faoliyat yurituvchi Farg'ona viloyati 1-aniq va ijtimoiy fanlarga ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lif maktab-internati Maktab-internati direktori A.D.Raxmonova (kelgusida «Buyurtmachi» deb ataladi) birinchi tomonidan va o'z Nizomi asosida ish yurituvchi "Delta QX01" MCHJ (keyingi o'rirlarda «Pudratchi» deb ataladi) nomidan rahbar M.Abdukarimov ikkinchi tomonidan, mazkur shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar.

1. SHARTNOMA PREDMETI.

1.1. «Pudratchi» mazkur shartnoma shartlariga asosan Farg'ona viloyati Farg'ona viloyati tasarrufidagi 1-aniq va ijtimoiy fanlarga ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lif maktab-internatini va muassasada ta'lif olayotgan o'quvchilarni xavfsizligi ta'minlash majburiyatini oladi, «Buyurtmachi» esa bajarilgan ishlarni belgilangan tartibda qabul qilib oladi.

2. ShARTNOMA BAHOSI.

2.1. Mazkur shartnoma bo'yicha «Pudratchi» Delta QX01 MCHJ tomonidan 24-soatli soqchi posti bilan qo'riqlash yuzasida 4 nafar xodimni 1 oy uchun 2million so'mdan jami 8 million so'mga. 4 oy uchun jami 32 000 000 (O'ttiz ikki million) so'mni tashkil etadi.

2.2. Zaruriy asoslar mavjud bo'lganda «Buyurtmachi» va «Pudratchi»ning kelishuviga asosan mazkur shartnomaga qo'shimcha bitim rasmiylashtirilishi mumkin.

3. HISOB-KITOBI QILISH TARTIBI.

3.1. «Pudratchi» Delta QX01(MCHJ) Qo'riqlash hizmati tomonidan muassasani hamda muassasada ta'lif olayotgan o'quvchilarni xavfsizligi ta'minlash asosan Qo'riqlash hizmati uchun oylik to'lovini oy yakunidan so'ng o'zaro solishtiruv dalolatnomalariga asosan, bajarilgan ishlarni qiymati uchun «Buyurtmachi» pul o'tkazish yuli bilan to'lovni amalga oshiradi.

3.2. «Buyurtmachi» oldindan shartnoma umumiyligi summasini 30 % miqdorida oldindan to'lovini «Pudratchi» Delta QX01 MCHJ Qo'riqlash hizmati hisob raqamiga o'tkazib beradi. Keyingi hisob-kitoblar hakikatda bajarilgan ishlarni hajmiga qarab, avans mablag'larini chegirgan xolda amalga oshiriladi.

4. IShLARNI BAJARISH TARTIBI VA MUDDATLARI

4.1. «Buyurtmachi» tomonidan oldindan to'lov amalga oshirilgan kundan boshlab 30 kalendar kun muddat ichida «Pudratchi» tomonidan qo'qiqlash hizmati yakunlanishi shart.

4.2. «Pudratchi» Delta QX01(MCHJ) Qo'riqlash hizmati qonun doirasida hamda amaldagi Nizom asosida me'yorlari talablariga muvofiq bo'lishini va qoniqarli bajarilishini ta'minlaydi.

4.3. «Pudratchi» Delta QX01(MCHJ) Qo'riqlash hizmati ishlarning bajarilishini texnika xavfsizligi, mehnat muhofazasi va yong'in xavfsizligi talablariga rioya qilgan holda amalga oshiradi.

5. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI.

5.1. «Pudratchi» Delta QX01(MCHJ) Qo'riqlash hizmati mazkur shartnomada nazarda tutilgan obyektlarni va alohida xonalarining tehnik mustahkamligini ta'minlash maqsadida chora-tadbirlar ko'rildi va o'z hisobidan Qo'riqlash texnik vositasi (post xonasi, postlar aro aloqa ichki va shahar telefonlari aloqa tizimini ularish ishlarni o'quvchilarni xavfsizligini ta'minlash ko'rsatilgan quyidagilarga hujjatlari mos kelmagan ishlarni olib "Buyurtmachi" tomonidan qabul qilinmaydi va shartnoma shartlari bajarilmaganligi uchun "Pudratchi"ga shartnoma shartida kelishib olingen pul mablag'lari o'tkazib berilmaydi.

5.2. «Buyurtmachi» Qo'riqlash hizmati tomonidan kunduzgi va tungi paytda hududni to'liq qo'riqlash hizmatini olib ishlarni hujjatlariga mosligini nazorat qilib boradi, hamda "Pudratchi"dan muassasani hamda muassasada ta'lif olayotgan o'quvchilarni xavfsizligi ta'minlash hujjatlariga mos ravishda qurilish ishlarni olib borishni talab qilishga haqli.

5.3. «Buyurtmachi» tomonidan «Pudratchi»ga moddiy tovar boylikarini saqlanadigan omborlari o'quv binolari, kerakli o'quv jihozlari mavjud xonalari, devot, tom shift va barcha turdag'i moddiy jihozlar va muassasada ta'lif olayotgan o'quvchilarni xavfsizligi ta'minlash ishlarni bajarishi uchun zaruriy sharoitlarni yaratib beradi va bajarilgan ishlarni bo'yicha tuzilgan dalolatnomalarini qabul qilib oladi.

5.4. «Buyurtmachi» tomonidan tuzilgan dalolatnoma (Qo'riqlash hizmati bo'yicha belgilagan talablarga mosligini tekshirish dalolatnomasi) asosida bajarilgan ishlarda kamchilik va muammolar aniqlangan taqdirda, «Buyurtmachi» tomonidan alohida dalolatnoma rasmiylashtiriladi asosida bajarilgan ishlarni kamchilik va nuqsonlar o'z mablag'i va 3 kun muddat ichida «Pudratchi»ga xabar yuboriladi. «Pudratchi» tomonidan ushbu aniqlangan kamchilik va nuqsonlar o'z mablag'i va 10 kun davomida bartaraf etiladi. Bartaraf etilmagan taqdirda "Pudratchi"ga shartnoma shartida kelishib olingen pul mablag'lari o'tkazib berilmaydi hamda qonunchilik hujjatlarida nazarada tutilgan choralar amalga oshiriladi.

6. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI.

6.1. Tomonlardan biri shartnoma shartlarini bajarmagan yoki zarur darajada bajarmagan taqdirda aybdor tomon ikkinchi tomonga yetkazilgan zararni to'liq qoplaydi.

6.2. «Pudratchi» Delta QX01 tomonidan Qo'riqlash hizmati ishlari belgilangan muddatlarda yakunlangandan keyin «Buyurtmachi» tomonidan to'lovlar o'z muddatida amalga oshirilmasa to'lanmagan summani 0.4% miqdorida har bir muddati o'tgan kun uchun «Pudratchi»ga penya to'laydi, lekin bunda penyaning umumiy summasi o'tkazib berilmagan mablag'lar summasini 50% dan oshmasligi kerak. . ,

6.3. Penyalar to'lanishi taraflarni shartnomada belgilangan majburiyatlarini bajarishdan ozod etmaydi.

7. FORS-MAJOR HOLATLARI.

7.1. Agar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlar qisman yoki to'liq bajarilmasligi, tabiat xodisalari, urush, ommaviy tartibsizliklar, hukumat qarorlari va boshqa yengib bo'lmas kuch holatlari natijasida kelib chiqsa, tomonlar javobgarlikdan ozod etiladilar.

8. KORRUPSIYAGA QARSHI QO'SHIMCHA SHARTLAR

8.1 Taraflar shartnoma tuzishda, shartnomaning amal qilish muddatida va ushbu muddat tugaganidan so'ng, shartnoma bilan bog'lik korrupsiyavii harakatlarni sodir qilmaslikka kelishib oladilar.

8.2 Taraflar shartnomadagi korrupsiyaga qarshi qo'shimcha shartlarda belgilangan korrupsiyaning oldini olish choralarini tan oladi va ularga rioya etilishi bo'yicha xamkorlikni ta'minlaydilar.

8.3 Har bir taraf shartnoma tuzilgan paytda bevosita o'zi yoki uning ijroiya organlari, mansabdor shaxslari va xodimlari tomonidan shartnoma bilan bog'lik munosobalar yuzasidan qonunga xilof ravishida pul, moddiy qiymatliklar berilmaganligini, shartnoma tuzilishi evaziga norasmiy pul yoki boshqa moddiy qiymatliklar olinishga yo'l qo'yilmaganligini, taklif etilmaganligini, ularni berishga va da qilinmaganligini, shuningdek moddiy yoki har qanday turdag'i imtiyoz, ustunliklar olinmaganligini (kyelajakda bu turdag'i xarakatlarni amalga oshirishi 'mumkinligi haqida taassurot goldirmaganligini) kafolatlaydi.Taraflar, ular tomonidan shartnoma doirasida jalg qilingan shaxslarning (yordamchi pudratchi tashkilotlar, agentlar va taraflar nazorati ostidagi boshqa shaxslarning) yuqoridagi xarakatlarni sodir etmasligi yuzasidan oqilona choralar ko'radi.

8.4 Ushbu holat bo'yicha bir taraf ikkinchi tarafni hamda vakolatli davlat organlarini darhol xabardor qilishi shart.

8.5 Tarfning talabi bo'yicha ikkinchi taraf tomonidan qoidabuzarlklarni bartaraf qilish bo'yicha oqilona muddat ichida tegishli choralar ko'rilmagan yoki ko'rib chiqish natijalari haqida xabardor qilmagan taqdirda, ushbu taraf shartnomani bir taraflama to'xtatib turishga, bekor qilishga hamda zararni to'liq qoplab berishni talab qilishga haqli.

9. QO'SHIMChA ShARTLAR.

9.1. Ushbu shartnomani bajarish, o'zgartirish va uni bekor qilishda paydo bo'ladigan nizolar eng avvalo, taraflarning kelishivi bilan hal qilinadi. O'zaro kelishilmasa «Buyurtmachi» joylashgan hududdagi iqtisodiy sud va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlari tartibida hal qilinadi.

9.2. Shartnoma taraflarning o'zaro kelishuviga asosan yoki O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga hamda amaldagi qonun hujjalari normalariga binoan keltirilgan zararlarni to'lagan holda muddatidan ilgari bekor qilinishi mumkin.

9.3. Ushbu shartnoma 2022 yil 31-dekabrgacha tuzildi. Shartnoma ikki tomonlama imzolanib, hududi g'aznachilik boshqarmasi(bo'limi)da ro'yxatdan o'tkazilganidan so'ng qonuniy kuchga kiradi.

10. TOMONLARNING HUQUQIY MANZILI VA REKVIZITLARI.

«IJROCHI»	«BUYURTMACHI»
<p>Delta QX01 Qo'riqlash hizmati</p> <p>Manzil: Farg'ona viloyati Oltiariq tumani Qiziltepa qishlogi Qiziltepa ko'chasi Tel: 998 91.112-95-99 X/r:20208000505509632001, Bank nomi "Agrobank" Oltiariq tumani filiali MFO: 00502 Tashkilotning STIRi: 309416258 IFUT(okonx):</p> <p>Raxmonova A.D. M.Abdukarimov</p>  	<p>Farg'ona viloyati 1-aniq va ijtimoiy fanlarga ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktab-internati</p> <p>Manzil: Farg'ona shahar A.Navoiy ko'chasi 31 A-uy Tel./faks: +(8 373) 226-59-19 Shg'h 400121860304017092300075003 Tashkilotning STIRi: 202262292, IFUT(okonx): 92100 Farg'ona viloyati G'aznachilik boshqarmasi YaG'H: 23 402 000 300 100 001 010 Bank nomi: MANKAZIY BANKNING Toshkent shahar Bosh boshqarmasi Hisob kitob kassa markazi (HKKM) MFO:00014 G'aznachilik boshqarmasi STIR: 301122019 Maktab-internati direktori:</p> <p>A.D.Raxmonova</p>